

ANDIJONIM SAN'ATI FAXRIYLARI

Shukurova Marg'ubaxon

O'zDSMI FMF Xoreografiya jamoalar raxbari 2-kurs talabasi

Fazliyeva Laylo

Ilmiy rahbar: O'zDSMI FMF "Xoreografiya" o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Andijonning fidoiy san'atkorlari, andijon farzandlari, SSSR Xalq artisti, buyuk aktyor va rejissor ABBOS BAKIROV va uning turmush o'rtog'i O'zbekiston xalq artisti, xonanda va aktrisa QAMARA BURNASHEVA lar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: San'at, aktyor, xonanda, obraz, teatr.

O'zbek adabiyoti va san'ati, madaniyatiga katta hissa qo'shgan, uzoq yillar o'zining mashaqqatli mexnati, sermazmun hayoti bilan xalqimizga xizmat qilib kelgan marxum Andijonlik buyuk ustozlarimiz hayoti va ijodilarini bir yod etsak. Men yod etmoqchi bo'lgan qaxramonlarimni hayotda uchratmaganman, lekin ularning Andijonimiz, qolaversa, mamlakatimiz san'ati rivojiga qo'shgan hissalarini haqida ko'p eshitganman.

Xalqning suyuqli farzandi, dunyoga mashxur san'at namoyondasi, sevimli aktyor, moxir rejissor, yuzlab shogirtlarning ustози, hammamiz uchun sevimli inson, SSSR xalq artisti, Xamza mukofoti lauriyati SAID ABBOSXON BAKIROV haqida so'z yuritsak. U 1910 yil 16-martda Andijon shaxrida el tanigan, o'qimishli, muqovasozlik kasbining ustasi Said Bakir Ubaydullo o'g'li oilasida, kenja to'rtinchi farzand bo'lib dunyoga keladi. Ularning uylariga vodiyning turli joylaridan shoirlar, yozuvchilar va san'at ahli tez tez tashrif buyurib turishar, ajoyib suxbatlar, she'rxonliklar va har xil baxslar uyishtirishib turishar edi. Yosh Abbas Bakirovning san'atga bolgan mexr, havas tuyg'ulari ana shunda uyg'ongan.

Buyuk san'atkorimiz xech qachon teatr yoki aktyorlik maktabida tahsil olmagan. Allohning unga bergan noyob qobilyati, iste'dodi, va tinimsiz mexnatlari evaziga san'at cho'qqisiga chiqdi-yu xalqimiz qalbidan chuqur joy egalladi. U Andijon teatrida uzoq yillar davomida ishlaydi. Teatr jamoasi Xamza Xakimzoda Niyoziyning "Boy ila xizmatchi" drammasini tayyorlashadi va Toshkent shaxriga ijodiy safar uyishtirishadi. O'zbek akademik drama teatri binosida namoyish etiladi. Teatr bosh rollarida "Jamila" obrazini Qamaraxonim Burnasheva, "G'ofir" obrazini Abbas Bakirov o'ynaydi. Taqdir

taqazosi bilan ular 1940 yilda birga turmush qurishadi. Ularning turmushlari san'atning gullatilishiga katta bir sabab bo'ldi deb o'ylayman. Turmushlaridan so'ng Abbos Bakirovning ishiga, san'atga bo'lgan muxabbati yanada ortib boradi. Ulkan muvaffaqiyatlarga erishadi. Ularning birga rol o'ynagan asari misli ko'rilmagan olqishlarga sazovor boladi va shu o'rinda Abbos Bakirovga "O'zbekiston xalq artisti" unvoni beriladi.

Abbos Bakirovning rejissorlik ijodi ham anchagina. Andijon teatrining oltin fondidan joy olgan "Layli va Majnun", "Boy ila xizmatchi", "Nodira", "Gulsara", "Nurxon", "Tohir va Zuxra", "Alisher Navoiy", "Tor-mor", "Rustam", "Xolisxon", kabi o'nlab asarlar o'sha davrda sahnalashtirilgan. Aktyorlik ijodiga kelsak, U 1939-yili katta mahorat bilan, talant bilan kino olamiga kirib kelgan. Ilk bor "O'zbekfilm"da suratga olingan ovozsiz filmda bosh rol "Azamat" rolini o'ynaydi. Aktyor sifatida koplak filmlarda "Nasriddin Buxoroda", "Amirlikning yemirilishi", "Abu Ali Ibn Sino", "Xamza", "Osiyo ustida bo'ron", "O'tgan kunlar", kabi mashxur filmlarni rollari bilan bezatgan.

Abbos Bakirov hayotda og'ir vazmin nihoyatda mulohazali, yuzidan nur yog'ilib turishi, madaniyatli, uzoqni ko'ra biladigan, zukko bo'lganligi ko'p rollarda qo'l kelgan. Andijonimiz shundayin ijodkor yetishtirganidan biz faxrlanib ijodkorimiz oxiratlari obod bolishini tilab qolamiz. ABBOS BAKIROV 1974-yil 29-yanvarda 64 yoshida vafot etadi.

Abbos bakirov san'at sohasiga ulkan hissa qo'shganida turmush o'rtog'ining o'rni katta degan jumlamiz bejizga emas. Qamara Burnasheva haqida so'z yuritsak. Iqtidorli, xalq suygan aktrisa va xonanda. O'zbekiston xalq artisti. Andijon o'zbek musiqali drama teatrining faxri, alohida xurmat va e'tiborga ega inson. Negaki u oddiy artistlikdan o'z mexnati shijoati bilan "O'zbekiston xalq artisti" darajasiga ko'tarilgan. Qamara Burnasheva 1920 yil 8-mart kuni Andijon shaxrida ziyoli oilada kenja uchinchi farzand bo'lib dunyoga keladi. Yosh bo'lishiga qaramay u o'z iste'dodini maktab davridayoq turli tadbirlarda ko'rsatib bera olgan. Unga To'xtasin Jalilov guvoh bo'lgan. So'ngra 14 yoshida Andijon teatriga aktrisa sifatida ishga kiradi. Teatr sahnasida 200 dan ortiq rollarni ijro etgan. U ishtirok etgan barcha spektakllar teatr oltin fondidan joy olgan. Andijon xalqimiz san'atsevar xalq Qamara Burnashevani doimo xurmat bilan tilga olishadi. Uning rollariga qiziqsak. "Boy ila xizmatchi"da Gulbaxor, Tojixon, "Romeo va Julietta"da Julietta, "Farxod va Shirin"da Shirin, "Oshiq g'arib"da Shohsanam, "Nurxon"da Nurxon, "Xolisxon"da Zebi, "Sanam"da Sanam, "Kelinlar qo'zg'aloni"da Farmonbibi, "Kampirga sovchi keldi"da Oysha xola kabi rollarni yuksak badiiy mahorat bilan ijro etgan. Bu nafaqat aktrisaga Andijon teatriga katta shuxrat keltirgan. Aktrisa Layli rolini 1001 marta ijro etib xalqimizning mexrini qozongan.

Qamara Burnashevani xonanda sifatida ham e'tiborga va extiromga loyiq san'atkor deb bilamiz. Shirali jozibador ovozi bilan har qanday davrada o'rin topgan san'atkorimiz ardoqga loyiq. Onaxon aktrisa ijrosidagi "Tokay", "Fig'onkim", "Mubtalo bo'ldim senga", kabi qo'shiqlari O'zbekiston radiosining oltin fondidan joy olgan. Shu jumladan spektakllarda areyalarni ham ijro etganini bilamiz. Uning kamtar odamshavandaligi inson qalbida yashaydi. Hayotda chindan baxtli san'atkor turmush o'rtog'i Abbas Bakirov bilan to'rt farzand ikki o'g'il ikki qiz ko'rishdi. Biz ulardan Oybarchin Bakirovani "Dublyaj aktrisasi" sifatida juda yaxshi taniymiz. San'atkorga 1960- yili "O'zbekiston xalq artisti", 1998-yili "El-yurt xurmati" ordeni berildi. U 2000-yil 31-mayda Toshket shaxrida vafot etdi.

Bu ikki ijodkor Adijonimiz faxrlari, fidoiylari Ularning hayotini "San'atga baxshida umr" desak mubolag'a bolmaydi. Umrlarini san'atga bag'ishlashdi, birga ijod qilishdi. Ularning ijodi bizning yodimizda va qalbimizda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mahmudov Avazbek. Andijon san'ati fidoiylari, To'ldirilgan 2-nashr, Akadernashr, 2018 — 226 bet. 5-8 va 127-130 -betlar.
2. @www.wikipediya.uz
3. UzME birinchi jild. Toshkent 2000-yil